maydi, lekin ularni nazorat qilish kerak, insonning barcha istaklari me'yorda bo'lishi kerak. Shunday qilib, Petrarka ijodi antropotsentrik xarakterga ega. Petrarkaning mashhur "Mening sirim" asarida Fransisk va Avgustin nomli qahramonlar o'rtasida bahs-munozara ketadi. Bu asardagi Avgustin Patristikaning dong taratgan vakili avliyo Avgustindir. Avgustin Fransiskni shuhratparastlik, moddiylikga berilishda, yer muhabbatini birinchi o'ringa qo'yishda ayblaydi.

Insonning bu xislatlari ruhiyat olami oldida o'tkinchi narsalardir. Avgustin Francheskoni yuksak ruhiy g'oyalarga da'vat etadi. Petrarka bu asarida moddiy va ruhiy hayotni birlashtirishga harakat qildi. Uning Avgustini moddiylikni inkor etmaydi, u darveshlik, tarkidunyochilikka da'vat etmaydi [8;42-b.]. Avgustin fikricha, Fransiskning ichki olami ziddiyatlarga to'la, bu ziddiyatlardan qanday chiqib ketishni Petrarkaning o'zi ham bilmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, Uyg'onish davri falsafasining antropotsentrizmi va gumanizmi g'oyalarini rivojlantirgan mashhur faylasuflarning qarashlariga xos bo'lgan jihatlarni ko'rib chiqdik. Ularning qarashlari zamonaviy falsafada xam o'z ahamiyatini yo'qotmagan. XXI asr falsafasida inson va uning jamiyat, tabiat va koinotdagi o'rni, tabiat bilan munosabatlari, inson xayotining qadri – qiymati, uning g'ururi va ruhiy erkinligi masalasi dolzarbligini yo'qotmadi. XXI asrning boshlarida falsafada inson masalasi yana dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ekologik muammolar esa tabiatga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Falsafa faqatgina umumfan metodologiyasi emas, u buyuk dunyoqarash xarakteriga ega ekanligi ko'pgina olimlar tomonidan ta'kidlandi. XXI asrning boshlarida inson masalasiga bo'lgan qiziqishni xuddi uyg'onish davri kabi yuzaga keltirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Гуговский М.А. Итальянское Возрождение. В 2-х томах, Л., ЛГУ, 1947–1961, с. 67.

(2). Блинников Л.В. Великие философы. М., "Логос", 1997, с. 80.

(3). Горфункель А.Х. "Философия эпохи возрождения". М., "Высшая школа", 1980, с. 27.

(4). Соколов В.В. Европейская философия XV–XVII веков. М., "Высшая школа", 1984, с. 28.

(5). Йўлдошев С. ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. Т., "Шарқ", 2002, 56 бет.

(6). Ғарб фалсафаси. Т., "Шарқ", 2004, 234-бет.

(7). Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. Т., "Шарқ", 2002, 134-бет.

(8). https://formasloff.ru/2020/07/20/sonety-franchesko-petrarki-o-lyubvi/



**Jumayev Aslam Hazratovich (O'zberkiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi; djumayev@bk.ru)**


## NAQSHBANDIYA TARIQATI TA'LIMOTIDA MEHNAT KONSEPSIYASI


***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada naqshbandiya tariqati ta'limotida mehnat konsepsiyasi yoritilgan. Tariqatlar tasavvufning amaliy ko'rinishi bo'lib, o'ziga xos uslub va qoidalar bilan insonni kamolotga yetkazishga xizmat qilgan. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotidagi eng muhim masala inson va uning kamoloti masalasidir.*



***Kalit so'zlar:*** *mutafakkir, tariqat, naqshbandiya, nafs, mehmnat, axloqiy tarbiya.*



**Жумаев Аслам Хазратович (научный соискатель Института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан; djumayev@bk.ru)**


## КОНЦЕПЦИЯ ТРУДА В ИДЕЯХ НАКШБАНДИЯ


***Аннотация.*** *В данной статье освещается философский анализ концепции труда в идеологиях тарикаты накшбандия. Тарикат – практическая форма суфизма, служившая доведению человека до совершенства с помощью собственных методов и правил. Важнейшим вопросом суфийского учения накшбандия является вопрос о человеке и его совершенстве.*



***Ключевые слова:*** *мыслитель, тарикат, накшбандия, желания, трудолюбие, нравственное воспитание.*



**Jumayev Aslam Khazratovich (scientific candidate at the Institute for Advanced Studies of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan; djumayev@bk.ru)**


## THE CONCEPT OF LABOR IN NAQSHBANDIYA IDEAS


***Annotation.*** *This article describes the concept of work in the ideas of naqshbandiya. Tariqats(sects) are a practical form of Sufism, which served to bring a person to perfection with their own methods and rules. The most important issue in Naqshbandi Sufi doctrine is the issue of man and his perfection.*



***Key words:*** *thinker, sect, naqshbandiya, temptation, hard work, moral education.*

**Kirish (Abstract).** Naqshbandiya tariqati o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Naqshbandiya tariqati o‘zining mazmun-mohiyati jihatidan yangi tarbiya usullari ishlab chiqqan. Shuningdek, tasavvuf ta’limoti naqshbandiylik tariqatida o‘zining ijtimoiy, ma’naviy-mafkuraviy xususiyati bilan diniy va etnik bag‘rikenglikni ifodalgan. Naqshbandiya tariqati komil insonni tarbiyalashni targ‘ib qilgan va umumbashariyat tan olgan tariqatlardir.

Marakziy Osiyo hududida keng tarqalib, yassaviya tariqatidan ham kuchliroq nufuzga ega bo‘lgan naqshbandiya tariqati XV asrdan boshlab, Hindiston va Istanbulga yoyilgan. Manbalarga ko‘ra, naqshbandiya tariqati XVIII asrda Mavlono Xolid Bag‘dodiyning sa’y-harakatlari natijasida Turkiya davlatida keng tarqalib eng faol harakatga aylangan. Bugungi kunda Istanbulning o‘zida 65 ta naqshbandiya dargohlarining mavjudligi, mazkur tariqatning keng tarqalganligidan dalolatdir.

Sharq xalqlari tarixida tasavvuf ta’limoti Bahouddin Naqshband yaratgan tasavvufiy ta’limot asosidagi mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilm-ma’rifatga intilish va butun borliqqa muhabbat g‘oyalarini targ‘ib etish orqali komil insonni tarbiyalashga xizmat qilgan [1;17-b.].

**Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods).** Tariqatlar borasida xojagon-naqshbandiya tariqatining vujudga kelishi quyidagicha izohlanadi. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy 1103-yilda Buxoro viloyati G‘ijduvon shahrida tug‘ilgan. Abdulxoliq G‘ijduvoniy Xoja Yusuf Hamadoniyning to‘rtinchi shogirdi sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy (1141–1167) ham Xoja Yusuf Hamadoniy bilan hamsuhbat va hammaslak bo‘lganligi hamda Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Xoja Ahmad Yassaviy aynan tasavvuf yo‘lidagi tarbiyalarini Xoja Yusuf Hamadoniydan olib kamolotga yetganliklari ko‘plab manbalarda e’tirof etilgan. Abdulxoliq G‘ijduvoniy “Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy” asrida ustozi Xoja Yusuf Hamadoniyni har jihatdan komil va “shayxlar shayxi” deb ta’riflagan [2;44-b.].

Abdulxoliq G‘ijduvoniy naqshbandiya tariqatida xojalar silsilasining asoschisi sanalgan. Xojagon-naqshbandiya tariqatining olti yirik piri murshidi – Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboi Samosiy, Amir Kulol bilan birga naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband hozirgi kungacha musulmon olamida “Yetti Pir” nomi bilan mashhurdirlar [3;7-b.].

Naqshbandiya ta’limoti Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy hayotida juda katta o‘rin egallagan. Bu ta’limot boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinxo‘rlikni, ijtimoiy zulmni qatiyan qoralagan. Shuningdek, ushbu ta’limot tarafdorlari tarkidunyochilikka, boy-zodagonlarning zulm va istibdodiga qarshi ma’rifat bilan kurashib, halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirganlar. Naqshbandiya tariqati tarafdorlari kishilarni savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, musiqa, ilm-ma’rifat, xattotlik, naqqoshlik kabi barcha foydali va xayrli ishlar bilan shug‘ullanishga da’vat etganlar. Shuning uchun ham o‘z davrining yirik namoyandalari bo‘lmish Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi taraqqiyparvar mutafakkirlar naqshbandiya ta’limoti yo‘lini tanlaganlar.

**Muhokama (discussion).** Naqshbandiya tasavvufiy ta’limotidagi eng muhim masala inson va uning kamoloti masalasidir. Naqshbandiya tariqati ta’limotida insonning mohiyati, uning o‘ziga xos tuzilishga ega ekanligi va insonning ruhiy-ma’naviy kamoloti masalalariga alohida e’tibor beriladi. Bahouddin Naqshband ta’limoti va naqshbandiya tariqati g‘oyalarida ham asosiy e’tibor nafsni jilovlash, qalb tarbiyasi, nafsni boshqarish va me’yorga solish kabi tamoyillarga qaratilgan. Bahouddin Naqshband inson o‘z nafsining tarbiyasini mukammal cho‘qqisiga yetsa komili mukammallik darajasiga yetishini aytgan.

Bahouddin Naqshband inson o‘z nafsiga hokim bo‘lishi, uni tarbiyalashi va barcha kuch-g‘ayratini ezgulik tomon sarflashi lozimligini uqtiradi. Halol luqma masalasiga alohida to‘xtalib, halol mehnat qilishni tavsiya etgan. Naqshbandiya ta’limotiga ko‘ra, tavba yo‘lini tanlagan kishi nafs balosidan qutuladi. Ya’ni, doimiy qalbi zikr bilan band bo‘lib, qo‘li mehnatda bo‘ladi. Behuda uxlash, behuda, gapirish va behuda yeyishdan tiyiladi. Bu esa kishini jismoniy va ruhiy kamolot sari yetaklaydi [4;71-b.].

Naqshbandiya ta’limotida Haqni unutmagan holda halol mehnat qilish, ya’ni, “Dast ba kor-u, dil ba yor” shiori ostida nafs tarbiyasiga erishish tariqat ahlini tekinxo‘rlikdan saqlab, halol mehnat qilish va halol luqma topishga undagan. Naqshbandiyadan farqli o‘laroq, ko‘plab tariqatlarda darveshlarning uzlatga chekinishi, mehnat qilmay, tilanchilik, tekinxo‘rlik bilan kun kechirib, chilla saqlab nafsini tarbiyalash holatlari ham kuzatilgan [5;32-b.].

Bahouddin Naqshband yaratgan ta’limot asosidagi mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilm-ma’rifatga intilish va butun borliqqa muhabbat g‘oyalari orqali komil insonni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Bahouddin Naqshband doim halol yashashni targ‘ib etgan. Unga ko‘ra, dilni Alloh bilan bog‘lagan holda kasb-hunar va qo‘l mehnatini, aslo, tark etmaslik kerak. Faqirona yashash, xayr-ehson hisobiga emas,

o‘z mehnati hisobiga hayot kechirish lozim. Shuning uchun Bahouddin Naqshbandning hayot yo‘li va u yaratgan ta’limot Muhammad payg‘ambar sunnatlariga o‘xshashdir.

**Natijalar (Results).** Bahouddin Naqshband umr bo‘yi dehqonchilik bilan kun kechirgan. Shuningdek, butun umrini bilan faqirlikda o‘tkazgan Bahouddin Naqshband. ushbu tariqatning asl aqidasi bo‘lmish “Dast-ba kor-u, dil ba yor”, ya’ni, doimo qo‘ling ishda, ko‘ngling Allohda bo‘lsin”, degan g‘oyani ilgari surgan. Bahouddin Naqshband o‘z mehnati, kuchi bilan kun ko‘rishni yoqtirgan, ishlab topgan mol-mulkini yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in’om etgan. Hukmdorlardan doimo o‘zini yiroq tutishga uringan va ulardan hech qachon ta’magirlik qilmagan.

Naqshbandiya ta’limoti Markaziy Osiyoda Amir Temurning mo‘g‘ullar iste’losiga qarshi kurashi, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma’naviy rivojlanishni ta’minlashga intilishida, temuriylar davri renessansining vujudga kelishida ulkan hissa qo‘shgan. XV asrning ko‘p olim-fozillari, davlat arboblari, san’atkorlari naqshbandiya tariqati ta’limotidan keng foydalanganlar va ushbu tariqatga o‘ta ijobiy munosabatda bo‘lganlar.

Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo‘l siltamay turib ham yaratganga mukammal itoat etish mumkinligi haqidagi g‘oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’minlagan. Bugungi kunda Bahouddin Naqshbandning Buxorodagi qabri ziyoratgoh hisoblanadi. Bahouddin Naqshband va uning ta’limoti hamda naqshbandiy shayxlar to‘g‘risida ko‘plab asarlar yaratilgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

**Xulosa (Conclusion).** Tariqatlar tasavvufning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, o‘ziga xos uslub va qoidalar bilan insonni kamolotga yetkazishga xizmat qilgan. Mumtoz tariqatlar XII asrda vujudga kelgan bo‘lsa, XIV asr ikkinchi yarmida vujudga kelgan xojagon-naqshbandiya tariqati butun tariqatlardagi (jumladan, yassaviya tariqatidagi) mushtarak unsurlarni o‘zida aks ettirgan mumtoz tariqatlarning biriga aylangan. Shu bilan birga, naqshbandiya tariqati ham boshqa tariqatlar kabi komil insonni tarbiyalashda o‘ziga xos uslub va qoidalardan foydalangan. Naqshbandiya tariqati mumtoz tariqatlarning oxirgisi va shuning uchun unda butun tasavvuf va tariqatlardagi eng yaxshi tomonlar o‘z aksini topgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Reference):**

(1). Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Т., “Янги аср авлоди”, 2003, 44-бет.

(2). Г.Н.Наврўзова. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Тошкент, «Фан», 2021, 192-бет.

(3). Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (Авроди Баҳоия). Г.Наврўзова таржимаси. Бухоро, «Бухоро», 2000, 40-бет.

(4). С.Рахмонов. Икки тариқатнинг буюк даҳолари (Мавлоно Жалолиддин Румий ва Хожа Баҳоуддин Нақшбанд мисолида). Монография, Самарқанд, СамДЧТИ, 2022. 148-бет.

(5). Г.Н.Наврўзова, Э.Х.Зоиров. Бухорои шарифнинг етти пири. Тошкент, “Muharrir”, 2018, 80-бет.

**Maxmudov Feruz Tulkinovich (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi)**

## YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLABAY ISHLASH TIZIMINING XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda mahallabay ishlash tiziminining xususiyatlari aks ettirilgan. Yurtimizda “Mahallabay” tizimni amaliyotda samarali ishlashini ta’minlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilmoqda.*

***Kalit so‘zlar:*** *mahallabay ishlash, mahalla, mahalla beshligi, mahalla yettiligi, ijtimoiy himoya.*

**Махмудов Феруз Тулкинович (соискатель института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан)**

## ХАРАКТЕРИСТИКИ СИСТЕМЫ РАБОЫ С МАХАЛЛИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация.*** *В данной статье отражены особенности системы махаллинский работы в Новом Узбекистане. В нашей стране разрабатываются механизмы, обеспечивающие эффективное функционирование системы «Махалля» на практике. Сегодня для развития и поддержки микрорайонов введены республиканские, областные и районные (городские) советы.*

***Ключевые слова:*** *махаллинская работа, махалля, «махаллинская пятерка», «махаллинская семерка», социальная защита.*